O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Shunday qilib, tez orada raqamli pul yangi valyuta tizimiga berilgan deb qabul qilinadigan vaqt kelishi mumkin. Kriptovalyutalarning barcha afzalliklari va kamchiliklari bilan ular qolish va dunyoni o'zgartirish uchun kelganliklari aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jukov E. F. pul va kreditning umumiy nazariyasi. Nashr. Birlik, M.: 1998 Yil
2. Korchagina K. O. Rossiyadagi kripto valyutasi. Kriptovalyutalarning Rossiya iqtisodiyotiga ta'siri / / samara davlat iqtisodiyot universitetining yosh olimlar Byulleteni. 2022. № 1 (45). 63-66-betlar.
3. Batishcheva G. A., Xan V. D. kripto valyutasi va Fiat pullaridan foydalanishning muammolari va afzalliklari va kripto valyutasi kursini bashorat qilish.
4. 31.07.2020 yildagi 259-FZ-sonli federal qonun (2022 yil 14 iyuldagi tahrirda) "raqamli moliyaviy aktivlar, raqamli valyuta va Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" (o'zgartirish bilan). va dol., 11.01.2023 yildan kuchga kirdi).

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MULKNI XUSUSIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARASI

Meliboyev Ibroxim Mavlon o‘g‘li,
Xusenov Muxammadali Murodillo o‘g‘li
Samarqand Davlat universiteti Urgut Filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy mulkchilikni bozor iqtisodiyoti tizimda tutgan o’rni, iqtisodiyotda xususiy mulkchilik sektorini kengaytirish sabablari,

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, Davlat Mulki, xususiy mulk, Davlat byudjeti, Ishsizlik, Inflyatsiya, aksiya, obligatsiyalar. Qarz shifti.

Kirish:

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi. Iqtisodiy tizimlar 3 turga bo’linadi: a’nanaviy iqtisodiyot, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti.

An'anaviy iqtisodiyot – deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir. U hozirgi davrda ham ba'zi iqtisodiy jihatdan past rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiyjarayonlar orqali amal qiladi. An'anaviy iqtisodiyotda natural yoki mayda tovarxo'jaligi hukmron bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash vaqti-vaqti bilan o'rnatiladigan urf-odatlarga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy, aniqrog'i, davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Foydalanadigan resurslarning

hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarini tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda har bir iqtisodiy subyektning xatti-harkati uning xususiy manfaatiga asoslanadi.[1]

Hozirgi kunimizda barcha iqtisodiy rivojlanishni xohlagan mamlakatlar bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishga harakat qilmoqda. Dunyodagi eng iqtisodiyoti rivojlangan yetakchi mamlakatlar bozor iqtisodiyoti tizimida ishlamoqda. Ayni paytda ularning iqtisodiyotini katta ulushi xususiy sektorga tegishlidir.

Bozorda faqat davlat sektori hukmron bo'lsa, raqobatlashuv yo'qoladi. Monopoliya vujudga keladi. Bunda bozordagi yirik korxona va ishlab chiqarishlar ulushi kichik biznes foizlaridan sezilarli darajada farqli bo`ladi. Bozorning asosini yirik ishlab chiqaruvchilar tashkil etadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo‘ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Xususiy mulkchilikning rivojlanishi davlat uchun quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

- kichik biznesni rivojlantiradi. Buning natijasida ishsizlik qisqaradi. Ishlab chiqarish hajmi sezilarli o'zgaradi. Mamalakatlar YaIM tarkibining katta qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to'g'ri keladi.

- iqtisodiyotga innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi. Davlat mulkidan kelgan foydalar asosan davlat xarajatlari, ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarga sarf etiladi. Buning natijasida yangi texnologiyalar kirib kelishi sekinlashadi. Xususiy tadbirkorlikda esa aksincha, ular foydani oshirish uchun uni qayta ishlash va yangi texnologiyalar olishga yo`naltiriladi, bu iqtisodiyotni o'sishini keltirib chiqaradi.

- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi huquqlardan to'liq va nafli foydalanish. Davlat mulki bozorning asosiy qismni tashkil etganda, xususan monopoliyani tartibga solish va adolatli raqobatni ta'minlashda qiyinchilikka duch keladi. Bozor munosabatlarida davlat Sherman qonuniga ko'ra yirik korxonalar aksiyasining 50 % ulushi bir qo'lda to'planib qolishini oldini olishga harakat qilib, o'z qo'lida to'plab qoladi. Natijada bozorda davlatning o'zi mutloq monopol bo'lib qoladi. Xususiy mulkchilikda esa bu holat kuzatilmaydi[2].

Xususiy mulkichilik mamlakat iqtisodiyotga qanchalik nafliligini yuqorida ko’rib o’tdik. Shunga qaramay ba’zi holatlarda xususiy mulkchilikni rivojlanib ketishi mamlakat iqtisodiyoti uchun salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bular:

1. Xususiy mulkchilikni rivojlanishi davlat mulkini qisqarishiga olib keladi. Davlat iflyatsiyani ma’lum miqdorda tutib turish uchun pul massasini nazorat qilib boradi. Davlat pul massasini aksiya obligatsiyalar chiqarish orqali neytrallashtirishga harakat qiladi. Davlat mulkining qisqarishi bu harakatning qisqarishiga olib keladi.

2. korxona, tashkilot o’z faoliyati davomida manopoliyaga erishishga bo’lgan harakatlari har doim mavjud. Mulkning katta qismi xususiylashishi monopoliyani jilovlashni qiyinlashtirib yuboradi

3. Mulkning katta qismi xususiy sektorga qolishi byudjet daromadlariga salbiy ta’sir etishi mumkin. Yoki xususiy sektor daromadlari davlat sektoridan ortib ketishi bu esa o’z navbatida xususiy sektorni davlat sektoriga iqtisodiy- siyosiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin.[3]

Davlat mulki xususiylatirilayotganda asosan auksion (e-auksion.uz) orqali sotiladi. Aslida bu shaklda sotish juda nafli hisoblanadi. Buning asosiy sabablari. Birinchidan, davlat moliyaviy aktivi bozorda xaridorlar raqobati asosida yuqoriroq narxa sotiladi. Ikkinchidan xaridor o’z byudjetini hisobga olgan holda narx xarid narxini belgilaydi. Bu belgilashda u faqat aktiv narxini emas. Balki unga ketadigan xarajatlar, aktivning harakatlanishi uchun yetarli mablag’ni hisobga oladi. Bu esa aktiv sotilgandan keyin ham o’z faoliyatini davom ettirishini belgilaydi. Ammo Davlat auksionda qatnashuvchilar uchun erkin raqobatni ta’minlamasa, xaridorlarni ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olmasa, aktiv xaridi natijasini hisobga olmasa va xaridorlarga bir qancha majburiy yuklamalar qo’ymasa huquqiy monopoliyani shakllantirib qo’yadi. Yoki undan ham yomoni xaridorning daromadlarini hisobga olmagan holda moliyaviy aktivni passsiv ga o’tib qolishi holatini kuzatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 8, 38

2. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Toshkent: SHarq, 2005.

3. Shodmonov Sh.Sh., G’ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: Iqtisod-moliya, 2010.- 728 b..

REVOLUTIONIZING ECONOMICS EDUCATION: EMPOWERING FUTURE ECONOMISTS THROUGH MODERN TECHNOLOGIES

Najmiddinov Dilshod Rafiddin ugli–
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
dear246.dn@gmail.com

Abstract: As the world undergoes rapid technological advancements, the field of economics is not exempt from the transformative wave. This article explores